

IQTISODIY SIYOSAT VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

Urunbaeva Yulduz Pirnazarovna

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisodiyot nazariyasi kafedrası
dotsenti*

Kushmanbekova Shaxzoda Komilbekovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
kushmanbekovashahzoda@gmail.com

Oloberganova Maftuna Zafarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy siyosat tushunchasi, uning maqsadlari, vositalari va jamiyat hayotidagi roli tahlil qilinadi. Iqtisodiy siyosatning barqaror o'sish, ish bilan ta'minlash, narx barqarorligini saqlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash kabi asosiy yo'nalishlari misollar bilan tushuntiriladi. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan iqtisodiy chora-tadbirlar, ularning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari, shuningdek, yuzaga keladigan muammolar va tanqidiy nuqtalar ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: Iqtisodiy siyosat, Barqaror rivojlanish, Ish bilan ta'minlash, Narx barqarorligi, Ijtimoiy adolat, Fiskal siyosat.

Iqtisodiy siyosat – bu har bir davlatning iqtisodiyotini boshqarish, uni barqaror rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Oddiy qilib aytganda, iqtisodiy siyosat davlatning “pul va resurslar” bilan ishlash usuli, ya'ni qanday qilib soliqlar yig'iladi, byudjetdan qanday mablag'lar sarflanadi, ish o'rinlari yaratiladi va narxlar nazorat qilinadi – shularning barchasini belgilovchi yo'l xaritasi sifatida qaraladi.

Bugungi kunda iqtisodiy siyosat nafaqat davlat darajasida, balki har bir inson hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ish o'rinlarining mavjudligi, narxlar barqarorligi, pensiya va ijtimoiy yordamlar darajasi – bularning barchasi iqtisodiy siyosatning samarasi yoki natijasi sifatida ko'rinadi. Shu sababli, iqtisodiy siyosatni tushunish va tahlil qilish nafaqat iqtisodchilar uchun, balki oddiy fuqarolar uchun ham muhimdir.

Maqolaning maqsadi – iqtisodiy siyosatning jamiyat hayotidagi o'rnini ko'rsatish, uning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'rganishdan iborat. Shuningdek, maqolada iqtisodiy siyosat vositalari, ularning amaliyotda qanday ishlatilishi va jamiyat hayotiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Ushbu tahlil orqali o'quvchi nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladi, balki kundalik hayotda iqtisodiy siyosatning qanday rol o'ynashini ham sezishi mumkin.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Iqtisodiy siyosat deganda davlatning iqtisodiyot bilan shug'ullanishi tushuniladi. Bu degani, u qanday qilib pulni taqsimlaydi, ish o'rinlarini yaratadi, narxlarni nazorat qiladi va odamlar hayotini yaxshilashga harakat qiladi. Shu sababli uning maqsadlari ham juda muhim.

Birinchisi, barqaror iqtisodiy o'sish. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiyot yil sayin o'sib borishi kerak. Agar ishlab chiqarish ko'payib, korxonalar ishlayotgan bo'lsa, odamlar ish bilan ta'minlanadi va hayot darajasi oshadi. Masalan, agar qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ko'paysa, ko'proq ish o'rinlari paydo bo'ladi va odamlar daromad oladi.

Ikkinchisi, ish bilan ta'minlash. Bu juda oddiy – har bir inson ish topa olishi kerak. Ishsiz qolsa, odamlar daromadsiz qoladi va turmush qiyinlashadi. Masalan, yangi korxonalar ochilganda yoki turizm rivojlanganda, ko'plab yoshlar va mutaxassislar ishga joylashadi. Shu bilan jamiyat ham barqaror bo'ladi.

Uchinchisi, narxlarni barqaror saqlash, ya'ni inflyatsiyani nazorat qilish. Agar oziq-ovqat yoki yoqilg'i narxi tez o'sib ketsa, odamlar xarid qilishga qiynaladi. Narxlar barqaror bo'lsa, odamlar o'z byudjetini rejalashtira oladi va hayot ancha osonlashadi.

To'rtinchisi, ijtimoiy adolat va daromadlarni tenglashtirish. Bu davlat kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlaydi, pensiyalarni oshiradi, bepul ta'lim yoki tibbiy xizmatlar beradi. Shu bilan aholining turmush darajasi biroz tenglashadi va norozilik kam bo'ladi.

Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari – bu barqaror o'sish, ish bilan ta'minlash, narx barqarorligini saqlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashdir. Agar bu maqsadlar amalga oshsa, mamlakat rivojlanadi, odamlar hayoti yaxshilanadi va jamiyat barqaror bo'ladi. Iqtisodiy siyosat turli usullar orqali amalga oshiriladi va har bir davlat o'zining iqtisodiy vaziyatiga qarab turli yo'llardan foydalanadi. Masalan, davlat soliqlarni kamaytirishi yoki oshirishi bilan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi, bu fiskal siyosat deb ataladi. Agar soliqlar kamaytirilsa, odamlar ko'proq xarid qiladi, ishbilarmonlar esa yangi biznes boshlashi mumkin. Shu bilan birga, davlat byudjeti orqali yangi yo'llar qurish, maktablar va kasalxonalar ochish ham shunday siyosatning bir qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari, pul-kredit siyosati ham juda muhim. Markaziy bank foiz stavkasini belgilaydi va shu orqali odamlar va kompaniyalarni qarz olishga yoki investitsiya qilishga rag'batlantiradi. Masalan, agar foiz stavkasi past bo'lsa, bizneslar yangi texnika sotib olish yoki ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qarz oladi. Aksincha, foiz stavkasi yuqori bo'lsa, odamlar kamroq qarz oladi va bu narxlarning keskin o'sishini biroz sekinlashtiradi. Davlat o'z mahsulotlarini himoya qilish va eksportni rivojlantirish uchun tashqi savdo siyosatini qo'llaydi. Masalan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida import qilinadigan mahsulotlarga soliq solinadi,



shu bilan ular bozorda raqobatdan qiyinlashmaydi. Shu bilan birga, eksportni rivojlantirish orqali mamlakatga ko'proq daromad kiradi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Iqtisodiy siyosat faqat pul va raqamlar bilan cheklanib qolmaydi, u odamlar hayotiga ham bevosita ta'sir qiladi. Masalan, kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash, bepul tibbiy xizmatlar yoki pensiyalarni oshirish orqali davlat ijtimoiy barqarorlikni saqlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, ekologik masalalarga e'tibor qaratib, sanoat korxonalarini nazorat qiladi, tabiatni himoya qiladi va kelajak avlod uchun sog'lom muhit yaratadi. Iqtisodiy siyosat bir-biridan ajralib turadigan turli yo'llar orqali amalga oshiriladi, lekin ularning barchasi bir maqsadga xizmat qiladi – mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, odamlar turmush darajasining oshishi va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash. Misol tariqasida O'zbekistonda so'nggi yillarda ishlab chiqarishni rivojlantirish, soliq tizimini o'zgartirish va ijtimoiy dasturlarni kengaytirish bu siyosatning amaliy ko'rinishidir. Shu tarzda iqtisodiy siyosat har bir odamning hayotida o'z aksini topadi va mamlakatni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Iqtisodiy siyosat faqat maqsadlar bilan cheklanib qolmaydi, ularni amalga oshirish uchun turli vositalar va usullar ishlatiladi. Masalan, davlat soliqlar va subsidiyalar orqali iqtisodiyotga ta'sir qiladi. Soliqlarni kamaytirsang, odamlar va kompaniyalar ko'proq pul sarflaydi yoki investitsiya qiladi, bu esa iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Aksincha, ba'zi mahsulotlarga soliqni oshirish orqali narxlarni barqarorlashtirish mumkin. Subsidiyalar esa ayniqsa kichik ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Masalan, qishloq xo'jaligida paxta yoki meva-sabzavot ekinlariga subsidiya berish orqali fermerlar ko'proq ekin yetishtiradi va bu umumiy ishlab chiqarishni oshiradi.

Pul-kredit siyosati ham iqtisodiy vositalar orasida muhim o'rin tutadi. Markaziy bank foiz stavkasini belgilaydi va shu orqali qarz olishni rag'batlantiradi yoki kamaytiradi. Misol uchun, agar foiz stavkasi past bo'lsa, odamlar ko'proq uy yoki avtomobil uchun kredit oladi, biznes esa ishlab chiqarishni kengaytiradi. Foiz stavkasi yuqori bo'lsa, qarz olish kamayadi va inflyatsiya biroz sekinlashadi. Davlat xaridlari va investitsiyalar ham muhim vositalardan biridir. Masalan, davlat yangi maktablar, yo'llar, kasalxonalar qurishga mablag' ajratsagina, nafaqat ish o'rinlari yaratiladi, balki odamlar hayoti yaxshilanadi. Shu bilan birga, davlat investitsiyalari orqali yangi texnologiyalar va sanoat tarmoqlari rivojlanadi. Qonunchilik va tartibga solish vositalari iqtisodiy faoliyatni nazorat qilishda yordam beradi. Masalan, mehnat qonunlari ish sharoitini himoya qiladi, ekologik qoidalar esa sanoat korxonalarining atrof-muhitga zarar yetkazishini cheklaydi. Shu yo'l bilan iqtisodiy faoliyatni tartibga solib, jamiyat va tabiiy muhitni muhofaza qilish mumkin. Soliqlar va subsidiyalar, foiz stavkalari, davlat xaridlari va investitsiyalar, qonunchilik va nazorat vositalari – bularning barchasi iqtisodiy



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

siyosatni amalga oshirish uchun ishlatiladigan asosiy vositalardir. Ular birgalikda mamlakatni rivojlantirish, odamlar turmush darajasini yaxshilash va jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy siyosatning amaliyotdagi natijalarini ko'rish uchun bir nechta misollarga e'tibor qaratish mumkin. Masalan, O'zbekistonda so'nggi yillarda turli iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat sanoatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratmoqda. Shu orqali yangi ish o'rinlari paydo bo'ldi, eksport hajmi oshdi va odamlar turmush darajasi yaxshilanishga boshladi. Masalan, meva-sabzavot va paxta eksporti ko'payishi natijasida fermerlar ko'proq daromad olishmoqda, shuningdek, yangi korxonalar ochilishi bilan yoshlar ish topyapti.

Boshqa mamlakatlarga qarasak, iqtisodiy siyosat natijalari turlicha bo'lishini ko'rish mumkin. Masalan, Shvetsiya o'zining barqaror fiskal va ijtimoiy siyosati tufayli yuqori daromadli va ijtimoiy jihatdan barqaror jamiyatni yaratgan. Shu bilan birga, Venuzela kabi mamlakatlarda siyosiy va iqtisodiy qarorlar muvofiqlashtirilmagani, inflyatsiya va ish o'rinlarining yetishmasligi tufayli odamlarning hayoti qiyinlashgan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy siyosatni to'g'ri yo'lga qo'yish va rejalashtirish juda muhim.

Iqtisodiy siyosatning aholi hayotiga ta'siri ham aniq seziladi. Masalan, ish o'rinlari ko'payganda odamlar daromad oladi, narxlar barqaror bo'lsa, xarid qilish osonlashadi, ijtimoiy dasturlar orqali kambag'al oilalar qo'llanadi, pensiyalar oshiriladi. Shu bilan jamiyatda barqarorlik kuchayadi, odamlar kelajakni rejalashtira oladi va iqtisodiy faollik oshadi. Amaliy misollar ko'rsatadiki, iqtisodiy siyosat nafaqat nazariy tushuncha, balki har bir odam hayotida bevosita aks etadi va mamlakatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish har doim oson bo'lmaydi. Ko'plab qiyinchiliklar uchraydi, chunki iqtisodiyot – bu murakkab tizim va har bir qaror nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy omillarga ham bog'liq. Masalan, davlat soliqlarni oshirishi yoki byudjetni kamaytirishi aholining noroziligiga sabab bo'lishi mumkin, shuningdek, siyosiy barqarorlik yetarli bo'lmasa, iqtisodiy chora-tadbirlar kutilgan natija bermaydi.

Qisqa va uzoq muddatli natijalar ham farq qiladi. Ba'zi chora-tadbirlar tezkor natija beradi, masalan, soliqni kamaytirish yoki subsidiyalar berish orqali odamlarning daromadi qisqa muddatda oshadi. Lekin uzoq muddatli natijalar boshqacha bo'lishi mumkin: agar ishlab chiqarish quvvatlari yetarli bo'lmasa yoki infratuzilma rivojlanmagan bo'lsa, iqtisodiy o'sish barqaror bo'lmaydi va inflyatsiya kuchayishi mumkin.

Ijtimoiy va siyosiy omillar ham muhim. Masalan, siyosiy qarorlar tez-tez o'zgarib tursa yoki jamiyatdagi norozilik kuchli bo'lsa, iqtisodiy siyosatning samarasi kamayadi. Shu sababli, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda nafaqat



moliyaviy va iqtisodiy vositalar, balki siyosiy barqarorlik va jamiyat fikri ham e'tiborga olinishi kerak. Kelajakda iqtisodiy siyosat qanday rivojlanadi, degan savolni ko'p odamlar o'ylaydi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va yangi texnologiyalar juda katta o'rin egallaydi. Masalan, onlayn savdo, elektron to'lov tizimlari va sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish iqtisodiy siyosatni yanada samarali qilishi mumkin. Davlat ham shu o'zgarishlarni hisobga olgan holda, yangi qonunlar va tartiblarni ishlab chiqmoqda, shunda iqtisodiyot zamonaviy talabga moslashadi.

Globalizatsiya ham kelajakda muhim rol o'ynaydi. Dunyo bozoriga kirish, boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiyotini kuchaytiradi. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, global bozor o'zining raqobati bilan birga xavf va muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy siyosat har bir mamlakat hayotida juda muhim o'rin tutadi. U nafaqat davlat darajasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki har bir odamning kundalik hayotiga bevosita ta'sir qiladi. Ish o'rinlari, daromad darajasi, narxlar barqarorligi, ijtimoiy himoya – bularning barchasi iqtisodiy siyosatning natijasidir. Shu bilan birga, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish oson emas; qisqa va uzoq muddatli natijalarni hisobga olish, siyosiy va ijtimoiy omillarni e'tiborga olish kerak.

Kelajakda esa iqtisodiy siyosatning roli yanada oshadi. Raqamli iqtisodiyot, yangi texnologiyalar, barqaror rivojlanish va global aloqalar hisobga olinsa, mamlakatlar yanada rivojlangan va barqaror jamiyat yaratishi mumkin. Shu bois iqtisodiy siyosatni puxta rejalashtirish, turli vositalar va usullardan oqilona foydalanish muhimdir. Shunday qilib, iqtisodiy siyosat nafaqat davlatning iqtisodiy qudratini oshiradi, balki odamlar hayotini yaxshilash va jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaev. K.J, Boboqulov. S.B, Janzakov B.K – Raqamli Iqtisodiyot
2. Abdullayev. O, Axtamov. A, Shakarov. A – “Makro-Mikro iqtisodiyot” Toshkent-2007
3. Berkinov. B.B – “Institutsional iqtisodiyot” Toshkent - 2021
4. Mirzayev. K. Dj, Sheraliyev. A.S, Ulug'murodov F.F. – Yashil iqtisodiyot.
5. Shadieva G.M, Sharipov T.S, Sultonov Sh. A, Artikov Z.S,
6. Maxmudov L.U, Xazratov A.P, Musinov D.S – “Mintaqaviy Iqtisodiyot” Samarqand – 2023



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

